

ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Xoshimjonova Zilolaxon Furqatjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari, tarbiya va ta'lim haqidagi fikrlari bugungi kunda qanchalik ahamiyat kasb etishini va kelajakga ham asrab qolishimiz yoritiladi.

Kalit so‘zlar: komil inson, pedagogika, mutaffakkir, ta’lim-tarbiya, pedagogik tamoyillar.

Pedagogika fani tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Vatanimizda yetishib chiqqan buyuk qomusiy olimlarning pedagogik qarashlarida olg‘a surilgan insonparvarlik, komil insonni yetishtirish, yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish xususidagi g‘oyalari, ta’lim, bilim berish, tarbiyalash vositalari, ta’lim va tarbiyani amalga oshirish usullari haqidagi tavsiyalari milliy pedagogika tarixi rivojiga qo‘sghan hissalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qilmoqda. Xuddi shunday qomusiy olimlarimizdan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) hisoblanadi. Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o‘quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsni kamolga yetkazishdagi o‘rni va roli beqiyosdir.. Beruniyning ta’kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Pedagogik jarayon faqat o‘qitish bilan chegaralanmaydi. Ayrim pedagogik manbalarda dars soatlaridan keyin ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan maktabda olib boriladigan barcha ishlarni bitta umumiyl tushuncha – sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar birlashtiradi. Shuningdek, ta’lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko‘rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi. O‘quvchi-talabalarning yaxshi o‘qishi uchun muallim rostgo‘y, savodxon, shogirdlariga prinsipial xushmuomalali bo‘lishi kerak. Beruniyni chinakam

o'rta asrlar Sharqining ilm-fan qomusiy olimi desak mubolag'a bo'lmaydi. Beruniyning ko'plab fikrlari ta'lim-tarbiya bilan bog'liq. Biz bu fikrlarni kelajak avlodga asrab qolishimiz kerak. Kelajak yoshlarga ajdodlarimiz qanday buyuk inson bo'lib butun dunyoga tanilganini ko'rsatishimiz kerak. O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. U qomusiy olim sifatida tarix, falsafa, astronomiya, geografiya, tibbiyat, matematika, astrologiya, fizika, adabiyot kabi fanlarni mukammal o'rgandi va ilmiy izlanishlar olib bordi va talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi. Hozirgi vaqtda o'quvchi talabaning savodli o'qishida to'rtta asosiy tarkibiy qism, ayniqsa, ahamiyatlidir. Bular ongli, ifodali, tog'ri va tez o'qishdir. Ular o'zaro ichki bog'lanish motivlariga ega. O'rta asrning buyuk donishmandi Beruniy o'qish haqida ana shu o'zaro bog'liqlik o'quvchi- talabalarning o'qish faoliyatini mukammallashtirishga, rivojlantirishga imkon yaratishini nazarda tutgan edi. Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo'yadi. O'quvchi- talabaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim- tarbiya mezonidir. Beruniy o'qitish jarayoni muallimning o'qib-o'rgatishi, takrorlashi bilan bevosita bog'liq ekanini alohida uqtiradi. Beruniy katta e'tiborni asosan ta'lim va tarbiyaga qaratgan. Beruniy "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Mineralogiya", "Geodeziya" kabi asarlarida inson va jamiyatning paydo bo'lishi, davlatni boshqarish siyosati, ijtimoiy adolat, jamoa faoliyati, mehnat taqsimoti va pul muomalasi, oila va nikoh munosabatlari masalalariga ham to'xtaladi. Beruniy inson va jamiyatning paydo bo'lishi masalasiga to'xtalib: "Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir", deydi. Beruniy kishilik jamiyatni paydo bo'lishi haqida fikr yuritar ekan, insonlar o'rtasida tafovutlar bo'lsa-da, kishilaring ichki tuzilishi barchada umumiyyidir, degan xulosaga keladi. Ana shu nuqtayi nazardan xalqlarning turli ajdodlaridan paydo bo'lgan degan ehtimolni butunlay rad etdi. U inson bilan maymun o'rtasida o'xshashlik borligini juda ko'p ilmiy dalillar asosida tushuntirib beradi: "Ular a'zolarining

o‘xshashligi bilan, tashqi ko‘rinishlari ham o‘xshab ketadi”. Lekin mutafakkir insonning hayvondan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo‘lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi. Ayniqsa, mutafakkiming insonning jismoniy tuzilishi va butun faoliyatini aniqlashda jo‘g‘rofiy omilning roli haqidagi fikrlari katta ahamiyatga ega: “...(odamlar) tuzilishlarining rang, sur’at, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)laring turlichaligidan hamdir”. Yollanma mehnat orqali Beruniy faqat odil mehnat shartnomasini ko‘ribgina qolmasdan, u har qanday majburiy mehnatga qarshi chiqib: Zo‘rlik va yollash orqali amalga oshadigan majburiy mehnat doim to‘g‘ri emas”, degan xulosaga keladi. Beruniyning ilmiy asarlari ham ko‘pgina darsliklarni yaratilishi uchun. debocha rolini bajarmoqda. Beruniy o‘qitishga faqat induktiv yo‘l bilan emas, balki deduktiv yo‘l bilan ish tutish lozimligini ta’kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o‘z joyida qo‘llamoq zarurligini yaxshi bilgani ko‘rinib turibdi. Bunday o‘qish tafakkurni o‘stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Beruniy tarbiya va ta’limni hayoti davomida 1-o‘ringa qo‘ygan. Allomaning barcha asarlarida ta’lim-tarbiya g‘oyalari yoritilgan. Biz bu asarlarni, qomusiy olimlarimiz haqidagi fikrlarni kelgusi avlodga asrashimizi asosiy sababi shuki, Allomalarimiz qanchalik buyukligini dunyo tan olgan asarlarini ular ham o‘qib o‘rganishi kerak. Abu Rayhon Beruniyning jamiyat taraqqiyoti va unda insonning tutgan o‘rni barkamol inson ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq axloqiy- huquqiy qarashlari hech qachon o‘z qimmatini yo‘qotmaydi va hozirgi davrda ham unga rioya qilish juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Zununov A. Pedagogika tarixi. Toshkent-2004.
2. Qurbonov M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent, 2003,41-b.
3. Hasanboyev J. Pedagogika, -“ Noshir” Toshkent, 2011, 130-b.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti. Toshkent, 2017.

5. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
6. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.
7. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.
8. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
9. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.
10. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
11. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.
12. Madaminjonovna M. M. Zamонавиy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.

13. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.
14. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – C. 1-128.
15. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
16. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
17. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o'rghanish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
18. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
19. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228.
20. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.